



**THE PLACE OF HYDROGRAPHIC AND HYDROGEOLOGICAL OBJECTS IN THE LOCATION OF THE POPULATION OF BAKHMAL DISTRICT**

*Mavluda A. Khudoynazarova*

*Lecturer*

*TIAME NRU Karshi Institute of Irrigation and Agrotechnologies*

*Shahlo I. Suyunova*

*Intern Researcher*

*National University of Uzbekistan*

**ABOUT ARTICLE**

**Key words:** spring, endemic spring, settlement.

**Abstract:** This article describes the influence of springs on the location of settlements, population.

**Received:**

**Accepted:**

**Published:**

**BAXMAL TUMANI AHOLISINING JOYLASHUVIDA GIDROGRAFIK VA GIDROGEOLOGIK OBYEKTLARNING O'RNI**

*Mavluda A. Xudoynazarova*

*O'qituvchi*

*"TIQXMMI" MTU Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti*

*Shahlo I. Suyunova*

*Tadqiqotchi*

*O'zbekiston Milliy universiteti*

**МАҚОЛА HAQIDA**

**Kalit so'zlar:** buloq, endemik buqoq, aholi punkti.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada aholi punktlarining joylashuviga, aholi soniga, buloqlarning ta'siri yoritilgan.

**МЕСТО ГИДРОГРАФИЧЕСКИХ И ГИДРОГЕОЛОГИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ В РАЗМЕЩЕНИИ НАСЕЛЕНИЯ БАХМАЛЬСКОГО РАЙОНА**

*Mavluda A. Xudoinazarova*

*Учитель*

*ТIIИМСХ НИУ Институт противоорошения и агротехнологии*

*Шахло И. Суюнова*

*Стажер-Исследователь*

*Национальный университет Узбекистана*

**О СТАТЬЕ**

**Ключевые слова:** родник, эндемичный родник, поселение.

**Аннотация:** В данной статье описано влияние родников на размещение населенных пунктов, население.

### KIRISH

Baxmal tumani hududi asosan Turkiston tog` tizmasi davomi hisoblangan Chumqor va Morguzar (Molguzar) tog`lari orasida, Sangzor vodiysida joylashgan, o`ziga xos hududdir.

Baxmal tumani geografik o`rnining bir qancha o`ziga xos xususiyatlari mavjud. Eng avvalo tuman tog` va tog` oldi hududda joylashganligi. Ushbu xususiyat bir qancha imkoniyatlarga yo`l ochib beradi. Tuman hududining janubiy va janubi-sharqiy qismida joylashgan Chumqor va Morguzar tog`i ushbu hududning iqlimning shakllanishining bosh omili hisoblanadi. Aynan tog`li hududning mana shunday joylashuvi nam havo massalarining tuman ustida turib qolishini ta`minlaydi. Natijada namgarchilik ortadi, bu o`z navbatida o`simlik va hayvonot dunyosining xilma-xil bo`lishiga ta`sir ko`rsatadi. Bu jarayonlar o`zingizga ma`lum bir-biriga uzviy bog`langan. Tog`larning joylashuvi yoz faslida tekisliklarda issiq havo massalarining turib qolishiga sabab bo`ladi, ammo tog`dagi qalin o`simlik qoplami va ichki suvlari tekislikda joylashgan hududlarga nisbatan havo haroratining past bo`lishini ta`minlaydi. Salqin tabiat qo`yni, go`zal tabiat manzarasi yoz faslida barchani o`ziga chorlab turadi.

### ASOSIY QISM

Tabiat va inson bir-biri bilan chambarchas bog`langan. Qadimdan kishilar tabiiy sharoiti qulay bo`lgan hududlarga intilgan va qulay sharoitga ega hududlarda muqim yashab qolganlar. Aholini biror hududni "vatan" qilishi uchun eng muhim omillardan biri bu suv hisoblanadi. Suv inson uchun hayotiy eng zarur bo`lgan tabiiy ne`matdir. Agar siz ma`lum bir hududning demografik xartasi bilan ichki suvlar xartasini bir-biri bilan solishtirsangiz ular ustma-ust tushadi ya`ni ikkala obyekt ham bir yo`nalishda joylashgan bo`ladi.

Baxmal tumani aholi joylashuvini o`rganish natijasida ham mana shu fikrlar o`z tasdig`ini topdi. Avvalo Baxmal tumani aholisining joylashuviga e`tibor qaratsak. Tuman aholisi asosan Turkiston tog` tizmalari (Chumqor va Morguzar) etaklarida joylashgan. Xo`sh, aholining bunday joylashuvidagi ta`sir ko`rsatuvchi asosiy omil nima?

Inson yashashi va xo`jalik faoliyatini yuritishi uchun zarur bo`gan eng muhim resurslardan biri bu suv ekanligini biz yuqorida ham ta`kidlagan edik. Tumanda hozirgi kunda aholini toza ichimlik suvi bilan ta`minlash asosan yer osti suvlari hisobiga amalga oshirilmoqda. Tuman hududida mineral tuzlarga to`yingan, shifobaxsh buloqlar mavjud.

Hududda shag`allarning suv o`tkazuvchanligi yuqori emas. Aniqlangan skvajinalarda 3.3 l/sek dan 9.0 l/sek gacha o`zgaradi. Shag`allar filtratsiyasi koeffitsientlarining kattaligi 25l/sutkadan 60 l/sutkagacha tebranadi.

Suvi chuchuk 0.5 g/l gacha zich qoldiq kattalikda bo`ladi. Suv tipi bo`yicha gidrokarbonat-sulfat, kalsiyli-magniyli. Daryo vodiylari grunt suvlarining to`yinishi yuqori va qisman o`rta qismidatog`lardan yer osti suvlari hisobiga, shuningdek daryo oqimi infiltratsiyasi hisobiga hosil bo`ladi.[4, 49-b.]

To`rtlamchi davr prolyuvial qatlamlarining nam saqlaydigan kompleksi ichki tog` botiqlarida keng tarqalgan. Sangzor daryosi vodiysining daryoning shimolga keskin burilishidan janubi-sharqda joylashgan qismida yer osti suvlari o`rta to`rtlamchi davr shag`allari va qumoqlariga to`g`ri keladi. [1, 226-b.]

Sangzor daryosi yuqori qismlarida buloqlar sarfi 30-50 l/sek ga yetadi. Ularning suvi chuchuk 0.5 g/l gacha gidrokarbanatli-sulfat kalsiyli-magniyli. Karbonat qatlam yer osti suvlari Turkiston tizmasi va Morguzar tog`larining unchalik katta bo`lmagan hududlarida tarqalgan.

Suv saqlaydigan jinslar chuqur yoriqlar oltingugurtli tarqalgan ohaktosh va marmarlar hisoblanadi. Ular devorlarining ishqorda yuvilishi hisobiga kengaymoqda, bu suvning katta chuqurlikka yetib borishiga imkon beradi. Qumli slanetsli qatlamlarning yer osti suvlari rayonning tog` tizmalari doirasida deyarli barcha hududlarda tarqalgan. Suv saqlaydigan jinslar – slanetslar, alohida vaziyatda qumoqlar hisoblanadi. Yoriqli zona odatda 40-60 m dan oshmaydi. Yer osti suvlarining yotish chuqurligi relyefning parchalanganlik holatiga bog`liq. Yer osti suvlarining minerallashuvi 0.5 g/l gacha. Ularning tipi gidrokarbanatli-sulfat, kalsiyli-magniyli.[4, 42-b.]

Demak Baxmal tumani aholisining suvga bo`lgan ehtiyojini qondiradigan asosiy manbaa buloqlardir. Bundan tashqari tumanda Sangzor daryosining bir qancha irmoqlari (Ko`kjar, Boyqo`ng`irsoy, Jo`m-jo`m, Vadigan, Bog`mazor) mavjud. Ushbu daryo irmoqlari va Sangzor daryosi ham o`sha hudud atrofidagi aholining suvga bo`lgan ehtiyojini qondiradi. Lekin daryo suvining asosiy qismi tekisliklardagi tumanlarga oqib borib, o`sha hududlarda sarf bo`ladi.

Baxmal buloqlarga boy tuman hisoblanadi. Ular Turkiston tog` tizmasining etaklarida joylashgan. Tumanning sharqiy qismida Raybuloq, Mullabuloq, Mingbuloq (buloq nomi hozirgi Oqqo`rg`on qishlog`ining eski nomidan olingan. Bu qishloqda buloqlar juda ko`p, deyarli har bir xonadon hovlisida bo`lgan, shuning uchun, Mingbuloq deb nomlangan), kabi buloqlar bor. [2, 12-b.]Ushbu buloqlar Dang`ara va Oqqo`rg`on qishloqlarida joylashgan bo`lib, suvi asosan aholi iste`moli uchun sarf bo`ladi va buloqdan oqib tushayotgan jilg`alar Sangzor daryosiga borib quyiladi. Yuqoridagilardan tashqari tuman hududida Jarbuloq, Ko`rbuloq (buloq tik jarlikning tubida joylashgani uchun buloq ko`zi ko`rinmaydi), Qorabuloq, Qizilsuv, Novqa ota, O`smat ota, Muzbuloq, Sutlibuloq (buloq suvi ko`pirib oq rang hosil qilgani uchun shunday nomlanadi), Sovuqbuloq, Buqa buloq, Sho`rbuloq, Navro`z buloq (eski nomi Qo`tir buloq), Sarpichoq, Mayda buloq, Jilli buloq kabi buloqlar mavjud. Tumanning Turkiston tog` tizmasining etaklarida

joylashgan deyarli barcha qishloqlarda buloqlar mavjud. Masalan, Qoraqishloq, Saroy, O‘damali, Buviaysha, Kattaqishloq, Chayish, Jadik, Aldashmon, Qirqishloq, Dang‘ara, Sartyuzi, Tanga topdi, Vadigan, Jo‘m-jo‘m, Tagop, Palaxmon, Mo‘g‘ol, Oqtosh, Kaltatoy, Lattaband, Buloqboshi, Uzunbuloq, Qurbonzo‘r, Qatartol, Tengali qishloqlarida hamda Quchchisoy, Do‘lanasoy, Munchoqlisoy, Teraklisoy, Jiyda soy, Bog‘dagul, Kattasoy, kabi soyliklarda ham bir qancha o‘rganilmagan buloqlar mavjud.

### XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tuman aholisi asosan Chumqor va Malguzar (Morguzar)tog‘lari etaklaridagi buloqlar atrofida hamda Sangzor daryosi va uning irmoqlari atrofida joylashgan. Buloqlarning suv sarfi qanchalik katta bo‘lsa, uning atrofida paydo bo‘lgan aholi punkti ham shunchalik yirik bo‘ladi. Misol uchun tumandagi eng yirik buloq “Novqa ota” bulog‘i, ushbu buloq atrofida joylashgan Novqa qishlog‘ nafaqat tuman miqyosida balki respublika miqyosidagi yirik qishloqlardan biri hisoblanadi. “O‘smat ota” bulog‘i tumandagi sersuvligi jihatdan ikkinchi o‘rinda turuvchi buloq. Ushbu buloq atrofida tuman markazi joylashgan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Baratov P. O‘zbekiston tabiiy geografiyasi.- T.:O‘qituvchi,1996.
2. Rakhmonkulovich, N. K. (2018). Muhammad ibraheem Al-Geyoushi's contribution on the studying of scientific heritage of Al-Hakim Al-Tirmidhi. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 7(9), 433-440.
3. Рауф Раҳим Бахмалий. Қалб эшиги калити. – Т.: “Фан ва технология”, 2011.
4. Said Azim. Baxmalnoma. Sangzor, 2001.
5. Nematov, O. THE PILGRIMAGE OF KHAZRAT ZAYNULOBIDIN. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych*, 83.
6. Xudoynazarova M.A. Baxmal tumanining rekreatsion – turistik imkoniyati va ulardan samarali foydalanish. Mag. Di. ... - Toshkent, 2022.
7. Gudalov, M., & Gozieva, M. (2020, December). Development Of Tourism In Zaamin National Nature Park By The Cluster Method. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 111-114).
8. Зокиров А.З. Узбекистоннинг шифобахш ресурслари ва шифоғох, масканлари. Абу Али ибн Сино. Т., 1997.
9. Yunusova, G. D. (2022). Specific Aspects Of The Speech Act In Korean. *Journal of Positive School Psychology*, 6(10), 4056-4059.